

ABU ISO AT-TERMIZIY ASARLARINING HADISSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Ilhom Abdusattorov Baxriddinovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Abu Iso at-Temiziy o'zidan boy ilmiy-ma'naviy meros qoldirgan bo'lib, ularning asosiy qismi hadis ilmiga oiddir. Ushbu maqolada alloma yozib qoldirgan asarlari bo'yicha mavjud ma'lumotlar umumlashtirilib, tahlil qilindi. Shuningdek, u yozgan asarlarning tarixiy manbalardagi turlicha nomlanishiga doir ma'lumotlar qiyosiy o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *“Jome' at-Termiziy”, “Ash-shamoil an-nabaviyya”, “Asmo us-sahoba”, “Kitob al-asmo val-kuna”, “Kitob al-hol”, “Risola fi-l-xilof va-l jadal”, “al-Ilal al-kabir”, “al-Ilal as-sog'ir”, “Kitob at-tafsir”, “Ar-ruboiiyyot fi-l-hadis”.*

IX asr (hijriy III asr) hadisshunoslik ilmida oltin davr hisoblanib, Muhammad (s.a.v) hadislarining ko'p qismi shu asrda yozib tadqiq qilindi. Butun musulmon olamida eng ishonchli deb tan olingan mo'tabar hadis to'plamlari sohiblari: Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj Nisoburiy, Abu Duvud Sijistoniy, Abdulloh ibn Abdurahmon Dorimiy, Ibn Moja al-Qazviniy, Ahmad ibn Shu'ayb Nasaiy kabi buyuk muhaddislar shu asrda yashab ijod qilganlar. Jumladan, buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy ham bular orasida o'z o'rniga ega.

Abu Iso at-Termiziy hadisshunoslik, fiqh, tarix, tafsir ilmlariga oid o'ndan ortiq kitoblarni yozib qoldirgan. Xususan, “Sunani Termiziy”(Termiziy to'plagan sunnatlar) hadislar to'plami allomaning shoh asari bo'lib, “Sihohi sitta” – oltita eng ishonchli hadislar to'plamining to'rtinchisi hosoblanadi¹⁴. Ushbu asar bir qator tarixiy manbalarda turlicha nomlar bilan qayd qilingan. Jumladan, “al-Jome'” (To'plam), “Jome' at-Termiziy” (“Termiziyning to'plami”), “Sahih at-Termiziy” (“Termiziyning sahih hadislarini”), “Jome' as-Sunan”(“Sunnatlar to'plami”), “al-Jome' as-sahih”(“Sahih to'plam”) va “al-Jome' al-kabir”(“Katta to'plam”) kabi nomlar bilan atalgan. So'ngi tadqiqotlarda muallifning quyidagi asarlarini yozib qoldirganligi keltirib o'tiladi: “al-Jome' as-sahih”(“Ishonchli to'plam”), “Ash-shamoil an-nabaviyya” (“Payg'ambarning alohida fazilatlarini”), “Asmo us-sahoba” (Sahobalarning ismlari), “Kitob at-tarix”, “Kitob al-ilal as-sog'iyr va al-ilal al-kabir”, “Kitob az-zuhd”(“Taqvo haqida kitob”), “Kitob al-asmo va-l-kuna” (“Roviylarning ismi va laqblari haqida kitob”), “Al-ilal fi-l-hadis”(“Hadislardagi illatlar yoki og'ishlar haqida”).¹⁵ Yana boshqa manbalarda olimning “Kitob al-hol”(Holat kitobi), “Risola fi-l-xilof va-l jadal”(“Tortishuv va ixtiloflar haqida risola”),¹⁶ “Kitob at-tafsir”(“Tafsir kitobi”), “Kitob fihi mavquf”¹⁷

¹⁴Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: “Hilol nashr”, 2021. – B. 84

¹⁵Uvatov U va Usmonov U. Termizlik ikki alloma. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2017.– B. 38.

¹⁶Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Jome' as-sunan. Saylanma hadislar. Movarounnahr, 2018. – B. 14.

¹⁷Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. Dor at-ta'siyl markaz al-buhusi va taqniyat al-ma'lumat, 2014. 1-jild. – B. 35.

(yoki “Kitab fi-l-asar al-mavquf”)¹⁸ kabi asarlari bo‘lganligi haqida ma’lumot keltirilgan. Bundan tashqari, “al-Ilal al-kabir” va “al-Ilal as-sog‘ir” asarlari alohida kitob sifatida qayd qilingan. Akrom Ziyoy al-Umariy o‘z tadqiqotida Termiziyga tegishli deb e’tirof etilgan ba’zi kitoblar xususida aniqlik kiritishga harakat qilib quyidagi dalillarni keltirib o‘tgan. “Kitob al-jarh va at-ta’dil” va “Kitob ar-ruboiiyyot fi-l-hadis” asarlari to‘g‘risidagi gaplar tahminiy harakterga ega bo‘lib, “As-sunan”(ya’ni “Sunani Termiziy”), “Kitob at-tarix”, “al-Ilal al-kabir” asarlari jarh va ta’dil ilmiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Ammo, Ibn Kasirning “Al-bidaya va-n-nihaya” asarida “Kalaam fi-l-jarh va-t-ta’dil”(Jarh va ta’dil haqida gap) iborasi “Kitob fi-l-jarh va ta’dil”(Jarh va ta’dil haqida kitob) tarzida keltirilgan. “Ar-ruboiiyyot fi-l-hadis” asariga kelsak, bu kitob Hofiz Yusuf ibn Shahin Sobit ibn Hajarga tegishli bo‘lib, muallif uni “Sunan at-Termiziy” asari asosida yozgan¹⁹. Ushbu ma’lumotlardan allomaning aynan “Kitob fi-l-jarh va ta’dil” va “Ar-ruboiiyyot fi-l-hadis” nomli asarlari mavjud bo‘lmagan degan fikr paydo bo‘ladi. Ammo boshqa manbalar, xususan, “Maorif as-Sunan” sharhining muqaddimasida “Kitob fi-l-jarh va ta’dil” kitobi alloma asarlari ro‘yxatida alohida kitob sifatida qayd qilingan bo‘lsa, “Ar-ruboiiyyot fi-l-hadis” asari “Sunani Termiziy” sharhi kitobida allomaning bizgacha etib kelib, nashr qilingan olti asari qatorida keltirilgan²⁰.

Demak, yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirib, qiyoslansa Abu Iso at-Termiziyning quyidagi asarlari bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin:

1. “Sunani Termiziy” yoki “Jome’ at-Termiziy”,
2. “Ash-shamoil an-nabaviyya” yoki “Ash-shomoil al-Muhammadiyya”,
3. “Asmo us-sahoba” yoki “Tasmiyat ashabi Rosulillah (s.a.v)”
4. “Kitob at-tarix”,
5. “Kitob az-zuhd”,
6. “Kitob al-asmo va-l-kuna”,
7. “Kitob al-hol”,
8. “Risola fi-l-xilof va-l-jadal”,
9. “al-Ilal al-kabir” yoki “Ilalu mufrad”,
10. “al-Ilal as-sog‘ir” yoki “Ilalu fi oxiri jome”
11. “Kitob at-tafsir”,
12. “Ar-ruboiiyyot fi-l-hadis”,
13. “Kitob fihi mavquf” yoki “Kitab fi-l-asar al-mavquf”,
14. “As-sulosiyyot fi-l-hadis”.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, yoqorida keltirib o‘tilgan Abu Iso at-Termiziy qalamiga mansub asarlarning barchasi bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

¹⁸ Muhammad Yusuf Banuriy. Maorif as-Sunan. Karachi, 1979. 1-jild. – B. 45.

¹⁹ Akrom Ziyoy al-Umariy. Turos at-Termiziy al-ilmiy. Maktabatu ad-dar bi-l-Madinatul Munavvara. – B. 14.

²⁰ Aminov H, Ismoilov M va mualliflar jamoasi. “Sunani Termiziy” sharhi. – T.: “Irfon Nashr”. – J. 1. – B. 29-

Zamonaviy tadqiqotlarda olimning quyidagi oltita asari bizgacha yetib kelganligi va nashr qilinganligi qayd qilingan: 1) “Sunani Termiziy”, 2) “Ash-shamoil an-nabaviyya”, 3) “Kitab al-ilal”, 4) “Tasmiyatu ashabi Rosulillah”(boshqa nomi “Asmo us-sahoba”), 5) “Ar-Rubo’iyyot fi-l-hadis”, 6) “As-Sulosiyyot fi-l-hadis”²¹.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, manbalarda Abu Iso at-Termiziy tomonidan yozilganligi qayd etilgan o‘ndan ortiq asar mavjud va ushbu asarlarning barchasi ham bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Ammo, allomaning shoh asarlari hisoblangan “Sunani Termiziy” va “Ash-shamoil an-nabaviyya” asarlari Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning hadislarini o‘rganishda eng muhim manbalardan hisoblanib, bugungi kunda hadisshunoslik fanidagi eng ahamiyatli asarlardan sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. Dor at-ta’siyl markaz al-buhusi va taqniyat al-ma’lumat. 2014. 1-jild. – B. 35.
2. Muhammad Yusuf Banuriy. Maorif as-Sunan. Karachi, 1979. 1-jild. – B. 45.
3. Aminov H, Ismoilov M va mualliflar jamoasi. “Sunani Termiziy” sharhi. – T.: “Irfon Nashr”. – J. 1. – B. 29-30.
4. Abu Iso Muhmmad ibn Iso at-Termiziy. Jome’ as-sunan. Saylanma hadislar. Movarounnahr, 2018. – B. 14.
5. Akrom Ziyo al-Umariy. Tuross at-Termiziy al-ilmiy. Maktabatu ad-dar bi-l-Madinatu-l Munavvara. – B. 14.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – T.: “Hilol nashr”, 2021. – B. 84.
7. Uvatov U, Usmonov U. Termizlik ikki alloma. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2017.– B. 38

²¹O’sha asar. – B. 29-30.